

**TIBBIYOT TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI KASBIY
KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR TEXNOLOGIYALAR
ASOSIDA LABORATORIYA INSTRUMENTAL USULLARDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH (GIGIYENA FANLARINI O'QITISH MISOLIDA)**

G.Q.Muxammadova

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: *Gigiyena. Tibbiy ekologiya - bu nazariy materialni o'rganish laboratoriya amaliyoti bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak bo'lgan bilim sohalaridan biridir. Uni o'rganish fizika, kimyo va matematika kurslaridan olingan fundamental bilimlarga asoslanadi. Bu talabalarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish, ko'nikmalarni rivojlantirish, murakkab tabiiy-ilmiy jarayonlarni majoziy shaklda namoyish etish imkonini beradi. Bundan tashqari, laboratoriya gigiyenasi darslari talabalarning nazariy kursdan olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'rganilgan qonunlar va hodisalarning amaliy qo'llanilishini to'ldiradi va chuqurlashtiradi.*

Kalit so'zlar: *tibbiy pedagogika, pedagogika, kasbiy mahorat, tibbiy ta'lim talabalari, mustaqil fikrlash, kompetentlik.*

Аннотация: *Гигиена. Медицинская экология – одна из областей знаний, в которой изучение теоретического материала должно подкрепляться лабораторной практикой. Ее изучение основано на фундаментальных знаниях, полученных из курсов физики, химии и математики. Это позволяет повысить уровень интеллектуального развития учащихся, развить умения и навыки, продемонстрировать сложные естественнонаучные процессы в образной форме. Кроме того, занятия по лабораторной гигиене помогают закрепить знания, полученные студентами из теоретического курса, дополняют и углубляют практическое применение изучаемых законов и явлений.*

Ключевые слова: *медицинская педагогика, педагогика, профессиональные навыки, студенты медицинского образования, самостоятельное мышление, компетентность.*

Abstract: *Hygiene. Medical ecology is one of the fields of knowledge in which the study of theoretical material should be supported by laboratory practice. Its study is based on fundamental knowledge obtained from physics, chemistry and mathematics courses. This allows to increase the level of intellectual development of students, develop skills, and demonstrate complex natural-scientific processes in a figurative form. In addition, laboratory hygiene classes help to strengthen the knowledge gained by students from the theoretical course, complement and deepen the practical application of the studied laws and phenomena.*

Key words: *medical pedagogy, pedagogy, professional skills, students of medical education, independent thinking, competence.*

Mavzuning dolzarbligi: Oliy tibbiy ta'limning zamonaviy rivojlanish davri uning sifatiga qo'yiladigan talablarning oshishi bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan mutaxassislar tayyorlash tizimida har bir talaba muvaffaqiyatga erisha oladigan, bilim olishga undaydigan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish dolzarb muammo hisoblanadi.

Asosiy qism: Jahon iqtisodiyotidagi globallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi jahon mehnat bozoridagi shiddatli raqobatga dosh bera oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruratini tug'dirdi. Shuning uchun kasbiy ta'lim jahon mehnat bozorining talablari va rivojlanish tendentsiyalarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Jahon hamjamiyatining zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyoti fan va ishlab chiqarish sohalaridagi amaliy islohotlar, ilmiy-texnik ma'lumotlarning jadal rivojlanishi va yangilanishi, yaxlitlik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan kasbiy faoliyat mazmunining muntazam ravishda dinamik o'zgarishi bilan ifodalanadi. O'zbekiston iqtisodiy hayotidagi jadal yangilanish va o'zgarishlar sharoitida ta'lim va ilm-fanni innovatsiyalar yo'nalishida rivojlantirish zamon talabidir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, O'zbekistonda keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali yangi uyg'onish, ya'ni uchinchi uyg'onish davri poydevorini yaratishni bosh maqsad qilib qo'ydik. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sodir bo'layotgan jarayonlar mutaxassislarning kasbiy fazilatlariga yangi talablarni belgilaydi, ularning ijtimoiy harakatchanligi va mehnat bozorida barqarorligiga yordam beradi. Bu kasbiy ta'limni mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy sharoitlarga moslashtirish vazifasini qo'yadi. Tibbiyot ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishdan maqsad mustaqil kasbiy faoliyatga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlashdan iborat. Bunga tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarini o'quv faoliyatining barcha yo'nalishlari nazariy, amaliy va laborator usullar yordamida yuqori sifatli kadrlar tayyorlash asosidagina erishish mumkin. Tibbiyot o'quv dasturining asosiy maqsadi tibbiyot talabalariga ularning amaliyoti uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlarni berishdir.

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilib kelinmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. Tibbiy ta'lim talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik va texnik bilimlarni fan, ta'lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o'zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon yuqori sifatli kadrlar tayyorlash mazmunini asoslash va kasbiy

kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Tibbiyot ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishdan maqsad – tayyor mustaqil kasbiy faoliyatga ega mutaxassis tayyorlashdan iboratdir. Bunga faqat nazariy va amaliy bilimlarni birga qo'llash va zamonaviy laboratoriya va instrumental tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish orqali erishish mumkin.

Mamalakatimiz oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv-metodik ta'minotini yaxshilash, mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida professor-o'qituvchilarning ilg'or ta'lim texnologiyalari va o'qitish usullarini tatbiq etish bo'yicha tashabbuskorligini oshirish, laborator-instrumental usullari yordamida o'qitishni joriy etish imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, tibbiyot ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar asosida takomillashtirish zaruriyati mavjud. Modernizasiyalashgan mazmun asosida ta'lim tizimida har bir bo'lajak kasb egasining ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida o'rin olgan fanlaridan olgan nazariy bilimlarini amaliyotga joriy etish va barkamol avlodni tarbiyalashga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini beruvchi laborator-instrumental usullardan o'quv-metodik majmualardan foydalanish zarur hisoblanadi. Kasb ta'limi o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish negizida kasbiy kompetentligini shakllantirishning ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Gigiyena. Tibbiy ekologiya-bu nazariy materialni o'rganish laboratoriya amaliyoti bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak bo'lgan bilim sohalariidan biridir. Uni o'rganish fizika, kimyo va matematika kurslaridan olingan fundamental bilimlarga asoslanadi. Bu talabalarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish, ko'nikmalarni rivojlantirish, murakkab tabiiy-ilmiy jarayonlarni majoziy shaklda namoyish etish imkonini beradi. Bundan tashqari, laboratoriya gigiyenasi darslari talabalarning nazariy kursdan olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'rganilgan qonunlar va hodisalarning amaliy qo'llanilishini to'ldiradi va chuqurlashtiradi. Shunday qilib, nazariy va amaliy kurslarning izchilligi printsipi ma'lum bo'lgan materialni o'zlashtirish jarayonida ustun ahamiyat kasb etadi. Gigiyenani o'qitish jarayonida turli xil texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar va laboratoriya uskunalari muhim rol o'ynaydi, ular bir tomondan ko'rinishni yaratishga qaratilgan, boshqa tomondan eksperimental natijalarni olish va tahlil qilish vositasi hisoblanadi.

Xulosa. Gigiyena fanini o'qitishning samarali usullari fanni o'qitishning yuqori darajasini ta'minlaydi va tibbiyot talabalarining tanqidiy, kognitiv fikrlashini rivojlantiradi, ta'lim sifati va natijalarini oshiradi. Rivojlanishi sharoitida bo'lajak tibbiyot xodimlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun bitiruvchilarga amaliy

sog'liqni saqlash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish va faol o'qitish usullarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradigan asosiy kompetensiyalar shakllantirilmoqda. Tibbiyot oliygohlar talabalari boshqa sohada ta'lim olayotgan talabalardan, tibbiyot sohasida asosiy maqsad inson xavfsizligi, salomatligi va kasalliklarni profilaktikasiga qaratilganligi bilan farqlanadi. Bu esa o'z o'rnida tibbiy ta'limda o'zgacha yondoshuvni talab qiladi. Tibbiy ta'limda o'tiladigan barcha tibbiyot fanlarni o'zlashtirishda talabalardan nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki shu sohaga doir amaliy bilimlarini ham mukammal egallashlari kerak bo'ladi. Bu sohada talabalarni mukammal bilim olishga laborator instrumental usullarini qo'llash yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kodirova M.M , Muxammadova G.Q. Pedagogik texnologiyalar tizimining tibbiyot fanlarini o'qitishdagi o'rnini. Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti. O'zbekiston.

2. Kodirova, M. M., & Muxammadova, G. Q. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TIZIMINING TIBBIYOT FANLARINI O'QITISHDAGI O'RNI (Kommunal va Mehnat gigiyenasi dars mashg'ulotlarini organayzerlar asosida). PEDAGOGS, 53(1), 37-41.

3. Parpiyeva, O. R., & Djalalidinova, O. O. (2022). TIBBIY TA'LIMDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(3), 547-551.

4. Parpiyeva, O. (2024). SHIFOKORLARNI TAYYORLASHDA SIMULYATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. Innovations in Science and Technologies, 1(1), 122-129.

5. Парпиева, О. Р., & Хайриллов, Х. И. (2023). АКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ УЧЕБНЫХ ИГР И СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ ВРАЧЕЙ. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 2(18), 124-128.

6. Mirzajonova, E. T., & Parpiyeva, O. R. (2022). Modern special preschool education: problems and solutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 100-106.

7. Парпиева, О. Р., Хожикаримова, Г. Т., & Назирова, А. М. (2021). FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. Экономика и социум, (6-2), 157-161.

8. Парпиева, О. Р., & Раззоқов, Б. Х. (2022). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(5), 1204-1207.
9. Parpiyeva, O. R., & Ruzimatova, A. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(10), 76-80.
10. Rakhmanovna, P. O., & Tairovna, I. Z. (2023). INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES TYPES. *Scientific Impulse*, 1(10), 950-955.
11. Парпиева, О. Р., & Назирова, А. М. (2021). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МУҲИТИ ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 157-161.
12. Муйдинова, Ё. Г., Мухаммадова, Г. К., & Ўринбоев, Ф. Ш. (2023). АКТУАЛЬНОСТЬ НАУКИ О ВОЕННОЙ ГИГИЕНЕ И ЕЕ ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(5), 256-258.
13. Soliyev, B., Muydinova, Y. G., Mukhammadova, G. K., & Ismailov, D. T. (2023). The contribution of the founders of medicine to the science of hygiene and the empirical data the collected. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(4 Part 2), 51-54.
14. Giyazidinovna, M.Y. (2023). Global problems of labor protection in agriculture. the theory of recent scientific research in the field of pedagogy, 1(7), 5-9.
15. Ашурова, М. Д., & Муйдинова, Ё. Г. (2023, March). ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПОВЕДЕНИЕ И ВОЗДЕЙСТВИЕ ЗАГРЯЗНЯЮЩИХ ВЕЩЕСТВ В ВОДЕ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 12, pp. 26-29)*.
16. Ruzmatova, X. Q., Kamalova, D. A., & Muxammadova, G. Q. (2023). ZAMONAVIY KIYIM ISHLAB CHIQRISHDA MEHNAT SHAROITLARINI GIGIENIK BAXOLASH VA ULARNING AYOLLAR SALOMATLIGIGA TA'SIRINI O'RGANISH. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
17. Muxammadova, G. Q., & Kodirova, M. M. (2023). ISHLAB CHIQRISH SANOAT KORXONALARINI AHOLI YASHASH JOYLARI ATMOSFERA HAVOSIGA TASIRI. *Экономика и социум*, (11 (114)-2), 274-279.
18. Солиев, Б., Муйдинова, Ё. Г., & Мухаммадова, Г. Қ. (2023). Изменения, Вызванные Нарушением Естественного Баланса Между Организмом И Внешней Средой. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 2(11), 420-423.